



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, iyun.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeveva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	21
Ergashkulov Muyinjon Umedovich	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI	28
Misirov Asliddin Mamasobirovich Eshdavlato T.A.	
MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT KO‘RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	32
Misirov Asliddin Mamasobirovich Qodirov B.	
MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING ME‘YORIYHUQUQIY ASOSLARI	36
Misirov Asliddin Mamasobirovich Saidmurodov J.N.	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKD MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI	40
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xalilov J.H.	
MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	45
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xamroqulov A.X.	
GEOMETRIC FIGURE DRAWING USING MODERN PROGRAMMING LANGUAGES.....	49
Daminova Barno Esanovna Asrorova Nilufar Bobur qizi Botirova Shodiya Turdimurod qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI	56
Baxtiyorova Vasila Muzaffarovna	
XORAZM VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHNING IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	60
Kurbanbayev Shoxruh Mirzo Zafar o‘g‘li	
XOTIN-QIZLAR BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI.....	65
Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi	



XOTIN-QIZLAR BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI

Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi

Andijon davlat texnika instituti

"Iqtisodiyot" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: kozimjonovasaidaxon837@gmail.com

Ilmiy rahbar: Zufarova Gulmira Abduxalilovna

Andijon davlat texnika instituti

"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

ANNOTATSIYA. Xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularning mehnat bozorida mavqeyini mustahkamlash hamda daromadlarini oshirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va tizimli to'siqlar tahlil qilingan. Inson kapitalini rivojlantirish orqali gender tengsizligini kamaytirish, ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda norasmiy bandlik sektorida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ulushini qisqartirish masalalari iqtisodiy yondashuvlar va statistik ko'rsatkichlar asosida tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash, ularning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va bandlik tarkibini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar bandligi, gender daromadlari tafovuti (gender pay gap), ayollar tadbirkorligi, norasmiy sektor, inson kapitali, mehnat bozori, raqamli ko'nikmalar.

АННОТАЦИЯ. Проанализированы социально-экономические проблемы и системные барьеры, связанные с обеспечением занятости женщин, укреплением их позиций на рынке труда и повышением уровня доходов. На основе экономических подходов и статистических показателей исследованы вопросы сокращения гендерного неравенства посредством развития человеческого капитала, финансовой поддержки женского предпринимательства и уменьшения доли женщин, занятых в неформальном секторе экономики. Разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на совершенствование системы занятости женщин, развитие их цифровых компетенций и усиление социально-правовой поддержки в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: занятость женщин, гендерный разрыв в оплате труда, женское предпринимательство, неформальный сектор, человеческий капитал, рынок труда, цифровые навыки.

ABSTRACT. The socio-economic challenges and systemic barriers related to women's employment, strengthening their position in the labor market, and increasing their income are analyzed. Issues of reducing gender inequality through human capital development, supporting women's entrepreneurship through financial mechanisms, and decreasing the share of women engaged in the informal sector are examined based on economic approaches and statistical indicators. Scientifically grounded recommendations are proposed to improve the employment structure of women, enhance their digital skills, and strengthen social and legal support mechanisms in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: women's employment, gender pay gap, women's entrepreneurship, informal sector, human capital, labor market, digital skills.

KIRISH

Har qanday demokratik va iqtisodiy barqaror jamiyatning rivojlanish darajasi o'sha mamlakatda xotin-qizlar uchun yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar, ularning mehnat bozorida ishtiroki hamda daromadlarining adolatlilik darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy iqtisodiy o'sish nazariyalarida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish shunchaki gender tengligi masalasi emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmini oshirish va kambag'allikni qisqartirishning muhim strategik omili sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyoda sodir bo'layotgan tarkibiy iqtisodiy o'zgarishlar, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyotiga o'tish jarayoni xotin-qizlar bandligi masalasini yangicha yondashuvlar asosida talqin etishni taqozo etmoqda.



Biroq jahon miqyosida ham, milliy darajada ham ayollar mehnat bozorida qator an'anaviy va tizimli omillar ta'sirida faoliyat yuritmoqdalar. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi bandlik darajasidagi tafovutlar, mehnatga haq to'lashdagi farqlar (gender pay gap), ayollarning ko'proq haq to'lanmaydigan uy mehnati va parvarishlash faoliyati bilan shug'ullanishi hamda norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi ularning iqtisodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekistonda ham xotin-qizlar bandligini ta'minlash va ularni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda xotin-qizlar ulushi jami aholining deyarli yarmini tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak, ularning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sanaladi. Shu bois, ayollar bandligi va daromadlarini oshirish bilan bog'liq masalalarni har tomonlama tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ilmiy-amaliy yechimlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi va ularning mehnat bozorida o'rni institutsional iqtisodiyot, mehnat iqtisodiyoti hamda feministik iqtisodiy nazariyalar doirasida keng tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu muammoning asosiy omillari va global tendensiyalari jahon miqyosida Amartya Sen, Klaudiya Goldin (Claudia Goldin) va Ester Duflo kabi taniqli iqtisodchilar tomonidan empirik jihatdan yoritilgan.

Klaudiya Goldin 2014–2023-yillardagi tadqiqotlarida ayollarning mehnat bozorida ishtiroki tarixan “U-simon” (U-shaped pattern) egri chiziqni shakllantirishini asoslab bergan [1]. Ya'ni, iqtisodiyot agrar tizimdan sanoatlashgan bosqichga o'tganda ayollar bandligi dastlab qisqaradi, biroq xizmatlar sohasi kengayishi va ayollarning ta'lim darajasi ortishi natijasida ularning iqtisodiy faolligi yana oshadi. Shuningdek, olimlar gender daromadlari tafovuti ko'pincha moslashuvchan bo'lmagan va yuqori mehnat yuklamasini talab qiladigan lavozimlarda ayollarning oilaviy majburiyatlari bilan bog'liq holda shakllanishini ta'kidlaydi.

Amartya Sen 1999-yilda chop etilgan “Development as Freedom” asarida ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va daromadlari nafaqat iqtisodiy ko'rsatkich, balki jamiyatda ta'lim sifati, aholi salomatligi hamda kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy omil ekanligini qayd etgan [2]. Olimning fikricha, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish inson taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ester Duflo 2012-yildagi ilmiy tadqiqotlarida ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiy rivojlanish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini asoslagan [3]. U iqtisodiy o'sish gender tengligini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishini, biroq ushbu jarayonning samaradorligi maqsadli davlat siyosati va institutsional mexanizmlar bilan yanada mustahkamlanishini ta'kidlaydi.

O'zbekiston sharoitida xotin-qizlar bandligining demografik, hududiy va ijtimoiy xususiyatlari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham o'rganilgan. D.M. Tadjibayeva 2022-yildagi tadqiqotlarida ayollar bandligini oshirishda oilaviy tadbirkorlik va kasanachilik institutlarining muhim o'rin tutishini qayd etadi. Shu bilan birga, ayrim sohalarida ayollar mehnatini yanada yuqori daromadli faoliyat turlariga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi [4].

N.V. Ganiyeva 2024-yildagi tadqiqotlarida hududlarda xotin-qizlar bandligini oshirish omillarini tahlil qilib, ayniqsa qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi ayollarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy xizmatlarning kengayishi ayollarning mehnat bozorida ishtirokini yanada faollashtiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlar xotin-qizlar bandligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, O'zbekiston mehnat bozorining raqamli transformatsiyalashuv jarayoni, demografik o'sish sur'atlari va yangi iqtisodiy imkoniyatlari ushbu masalani yanada chuqurroq o'rganishni talab etmoqda.

K. Goldin tomonidan ilgari surilgan “U-simon” nazariya va “ochko'z mehnat” konsepsiyasi mehnat bozorida gender tafovutlarini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida esa ushbu omillar bilan bir qatorda oilaviy qadriyatlar, uy mehnati taqsimoti hamda ijtimoiy infratuzilma imkoniyatlari ham ayollar bandligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, mahalliy olimlar tomonidan tavsiya etilgan oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik va mikrobiznes shakllari ayollar iqtisodiy faolligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq zamonaviy bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ayollarni yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi faoliyat turlariga kengroq jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, xotin-qizlar bandligini rivojlantirishda nafaqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, balki ularning STEM (ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo'nalishlari hamda raqamli iqtisodiyot platformalarida faol ishtirokini kengaytirish orqali inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan



strategik yondashuvlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xotin-qizlar bandligi tarkibi va daromadlari darajasini baholash uchun statistik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlillar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga asoslandi. Ayollar bandligiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish maqsadida mehnat bozorida taklif omillari (inson kapitali, ta'lim darajasi, oila a'zolari soni) va talab omillari (ish o'rinlarining xususiyati, moslashuvchan ish grafiklarining mavjudligi hamda gender stereotiplari) o'zaro qiyoslanib, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston mehnat bozorining tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollarning iqtisodiy faollik darajasi (labor force participation rate) erkaklarinikiga nisbatan pastroq. Ushbu farq, ayniqsa, farzand ko'rish va nikoh yoshidagi (25–35 yosh) ayollar guruhida yaqqol namoyon bo'ladi. Buning asosiy omillaridan biri ayollarning vaqtining muayyan qismi bola parvarishi va oilaviy majburiyatlarga yo'naltirilishi bilan izohlanadi.

Yana bir muhim jihat tarmoqlar bo'yicha ayollar mehnatining segmentatsiyalashuvi bilan bog'liqdir. Ayollar ko'proq o'rtacha ish haqi nisbatan pastroq bo'lgan byudjet sohalarida (sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat) faoliyat yuritish, yuqori daromadli tarmoqlarda (IT, moliya, og'ir sanoat, qurilish va tog'-kon sanoati) erkaklar ulushi yuqoriroq darajada kuzatiladi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston mehnat bozorining chuqur tahlili

Iqtisodiy ko'rsatkichlar	Ayollar (%)	Erkaklar (%)	Gender tafovutining xususiyati
Mehnat bozorida ishtiroki (faollik)	42,5	76,8	Ayollarning uy mehnati va bola parvarishi bilan bog'liq bandligi
O'rtacha oylik ish haqi darajasi	O'rtacha 35 % past	100 % (baza)	Tarmoqlararo segmentatsiya (byudjet va xususiy sektor o'rtasidagi farqlar)
Norasmiy sektordagi bandlik ulushi	54,2	45,8	Ijtimoiy paket va kafolatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi
Raqamli texnologiyalar va IT yo'nalishi	18,5	81,5	Texnik va muhandislik yo'nalishlarida ayollar qamrovini kengaytirish imkoniyatlari mavjudligi

Ushbu statistik tafovutlar ayollar daromadlarini oshirish uchun, avvalo, ularning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiyotning yuqori daromad keltiruvchi zamonaviy tarmoqlarida xotin-qizlar ulushini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Xotin-qizlar bandligi va daromadlarini rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muhim omillar guruhlari aniqlandi:

1. Maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish va "vaqt kambag'alligi" (time poverty) masalasi. Qishloq joylarda maktabgacha ta'lim muassasalari qamrovining cheklanganligi sababli ko'plab ayollar farzandlarini parvarish qilish bilan ko'proq shug'ullanadilar. Natijada yuzaga keladigan "vaqt kambag'alligi" holati ularning malakasini oshirish yoki to'liq ish kunida faoliyat yuritish imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklaydi.

2. Professional malaka va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati. Zamonaviy mehnat bozorida yuqori daromad keltiruvchi IT, frilans, masofaviy xizmatlar va biznes analitikasi kabi yo'nalishlarda ayollar ulushini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Ayni paytda ko'plab xotin-qizlar an'anaviy kasblarda faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularni zamonaviy va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi sohalarga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Norasmiy sektordagi bandlik va ijtimoiy kafolatlarni kengaytirish masalasi. Ayollarning muayyan qismi norasmiy sektorda (uy xizmati, chakana savdo, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari) faoliyat yuritadi. Norasmiy bandlik sharoitida esa ijtimoiy himoya mexanizmlari, pullik onalik ta'tillari, mehnat staji hamda kelgusidagi pensiya ta'minotidan to'liq foydalanish imkoniyatlari cheklanishi mumkin.

Ayollar daromadlarini oshirishning samarali yo'nalishlaridan biri ularni tadbirkorlik faoliyatiga kengroq jalb etish hisoblanadi. So'nggi yillarda "Ayollar daftari" tizimi orqali xotin-qizlarga mikrokreditlar ajratish amaliyoti keng yo'lga qo'yildi. Biroq ushbu yo'nalishda mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish muhimdir. Xususan, ayollarga ajratilayotgan kreditlarning katta qismi mikromiqyosdagi faoliyat turlariga (tikuvchilik, kasanachilik,



parrandachilik va boshqalar) yo'naltirilgan bo'lib, ularning biznesni kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli ayollar tadbirkorligini kichik biznes darajasidan innovatsion va barqaror biznes faoliyati bosqichiga olib chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ularning jamiyatlardagi mavqeyini mustahkamlash hamda daromadlar bazasini kengaytirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Moslashuvchan va masofaviy bandlik shakllarini kengaytirish. Yosh onalar uchun masofaviy ish (remote work), moslashuvchan ish grafigi va to'liq bo'lmagan ish kuni (part-time) kabi huquqiy hamda amaliy mexanizmlarni xususiy sektorda ham keng joriy etish zarur. Bu ayollarga oilaviy majburiyatlarni professional faoliyat bilan samarali uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish. Maktabgacha ta'lim muassasalari, bog'chalar va haftalik uzaytirilgan maktab guruhlarini tizimini, ayniqsa, chekka hududlarda kengaytirish orqali ayollarning vaqt resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish mumkin.

Xotin-qizlarni STEM va raqamli iqtisodiyotga tayyorlash. Ayollar o'rtasida raqamli savodxonlik, dasturlash, SMM, kopirayting, grafik dizayn va elektron tijorat (e-commerce) ko'nikmalarini bepul o'rgatuvchi davlat dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu ularga masofadan turib ham yuqori daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi.

Ayollar tadbirkorligini ekotizim darajasida qo'llab-quvvatlash. Faqat kredit ajratish bilan cheklanmasdan, xotin-qizlarni biznes-reja tuzish, marketing, mahsulotlarni eksport bozorlariga olib chiqish va brending asoslariga o'rgatish, shuningdek, ular uchun mentorlik (ustoz-shogird) tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xotin-qizlar bandligi va daromadlarini oshirish masalasi nafaqat ijtimoiy rivojlanish, balki mamlakat inson kapitalining samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim makroiqtisodiy yo'nalish hisoblanadi. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash oilalar farovonligini yuksaltiradi, bolalar ta'limi va salomatligiga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshiradi hamda aholi turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish, ularning zamonaviy kasb va ko'nikmalarni egallash imkoniyatlarini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, xotin-qizlar salohiyatini yanada to'liq ro'yobga chiqarish maqsadida institutsional imkoniyatlarni kengaytirish, ularni zamonaviy kasblar va raqamli texnologiyalarga o'qitish, shuningdek, tadbirkorlik tashabbuslarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur chora-tadbirlar uzoq muddatli istiqbolda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Goldin, C. 2014. *A Grand Gender Convergence: Its Last Chapter*. American Economic Review, 104(4), 1091–1119.
2. Sen, A. 1999. *Development as Freedom*. Oxford University Press.
3. Duflo, E. 2012. *Women Empowerment and Economic Development*. Journal of Economic Literature, 50(4), 1051–1079.
4. Tadjibayeva, D. M. 2022. *O'zbekistonda xotin-qizlar iqtisodiy faolligini oshirishning institutsional asoslari*. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, № 3, 45–52-betlar.
5. Ganiyeva, N. V. 2024. *Mintaqaviy mehnat bozorlarida gender tengsizligi va xotin-qizlar bandligi tarkibini takomillashtirish*. Biznes-ekspert jurnali, № 2, 18–24-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
